


# CHAKANA SAVDO TOVAR AYLANMASI

## Asosiy tarkib



Yirik korxonalar




Kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlari


## Dastlabki ma'lumotlar

Viloyat bo'yicha 2020-yilning yanvar-iyun oylarida chakana savdo tovar aylanmasi **6 079,1** mlrd. so'mni tashkil etib, 2019-yil yanvar-iyun oylariga nisbatan **2,8 %** ga kamaydi. Shu jumladan, yirik korxonalarining tovar aylanmasi **391,0** mlrd. so'mni (o'sish sur'ati **2,4 m.**) kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlarining tovar aylanmasi **5 282,8** mlrd. so'mni (**2,5 %** ga kamaydi), shundan Uyushmagan savdo tovar aylanmasi **405,3** mlrd. so'mni (**39,4 %** ga kamaydi) tashkil etdi.

## Tarkibiy qism, ulushlarda



## O'sish (o'zgarish) sur'atlari, foizda




## Uyushmagan savdo, mlrd. so'm




## UMUMIY MA'LUMOT

Viloyat bo'yicha 2020-yilning yanvar-iyun oylarida chakana savdo tovar aylanmasi **6 079,1** mlrd. so'mni tashkil etib, 2019-yil yanvar-iyun oylariga nisbatan **2,8 %** ga kamayish kuzatildi.




Viloyatimiz chakana savdo tovar aylanmasida G'uzor va Kitob tumanlardan tashqari qolgan barcha hududlarda kamayish sur'atlari kuzatildi. Chakana savdo tovar aylanmasining tarkibiy qismlarida kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlari hissasiga **93,6 %** va yirik korxonalar hissasiga **6,4 %** to'g'ri keldi.



## ENG YUQORI ULUSH

Viloyat chakana savdo tovar aylanmasida eng yuqori ulushni Qarshi shahri **21,9 %** ulush bilan **1 329,5** mlrd. so'mni tashkil etdi.



## ENG QUIYI ULUSH

Viloyatda chakana savdo tovar aylanmasida eng quyi ulushni Muborak tumani **2,2 %** ulush bilan **132,5** mlrd. so'mni tashkil etdi.

## YIRIK KORXONALAR, KICHIK BIZNES VA XUSUSIY TADBIRKORLIK SUBYEKTLARINING CHAKANA SAVDO TOVAR AYLANMASIDAGI ULUSHI, foizda



Yirik korxonalar	Kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlari
2019-yil yanvar-iyun	2019-yil yanvar-iyun
2020-yil yanvar-iyun	2020-yil yanvar-iyun

Chakana savdo tovar aylanmasida eng yuqori hajm kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlariga to'g'ri kelib, mazkur hajm 2020-yil yanvar-iyun oylari yakuniga ko'ra, **5 688,1** mlrd. so'mni tashkil etib, 2019-yil yanvar-iyun oylariga nisbatan **6,6** % ga kamaygan. Jami chakana savdo tovar aylanamasidagi ulushi esa **93,6** % ni tashkil etdi.

Bu ko'rsatkich hududlar kesimida taqqoslanganda, Shahrisabz shahrida (**99,6** %), Koson (**99,3** %), Qamashi (**98,8** %), Dehqonobod (**98,7** %), Mirishkor (**98,5** %), G'uzor (**98,5** %) tumanlarida yuqori ulush qayd etildi.






**CHAKANA SAVDO AYLANMASIDA YIRIK KORXONALAR,  
KICHIK BIZNES VA XUSUSIY TADBIRKORLIK  
SUBYEKTLARINING HAJMI VA O'SISH SUR'ATLARI**

2019-yilning yanvar-iyun oylariga nisbatan viloyatning barcha hududlarida chakana savdo tovar aylanmasida Kitob (101,4 %) va G'uzor (100,7 %) tumanlaridan tashqari qolgan barcha hududlarda kamayish sur'atlari kuzatildi..

**Chakana savdo aylanmasining o'sish sur'atlari, foizda**





	Jami, mlrd. so'm	2019-yil yanvar-iyun oylariga nisbatan, foizda	Yirik korxonalar, mlrd. so'm	2019-yil yanvar-iyun oylariga nisbatan, foizda	Kichik biznes va xususiy tadbirkorlik, mlrd. so'm	2019-yil yanvar-iyun oylariga nisbatan, foizda
<b>Qashqadaryo viloyati</b>	<b>6079,1</b>	<b>97,2</b>	<b>391,0</b>	<b>2,4 m.</b>	<b>5688,1</b>	<b>93,4</b>
<i>hududlar:</i>						
<b>G'uzor</b>	319,8	100,7	4,7	2,1 m.	315,1	99,9
<b>Dehqonobod</b>	199,1	90,6	2,5	7,4 m.	196,6	89,6
<b>Qamashi</b>	389,5	98,1	4,7	33,0	384,8	100,5
<b>Qarshi</b>	470,5	97,4	8,9	9,2 m.	461,6	95,8
<b>Koson</b>	469,1	95,2	3,4	16,1 m.	465,7	94,5
<b>Kitob</b>	739,5	101,4	27,2	153,3 m.	712,3	97,7
<b>Mirishkor</b>	147,0	89,9	2,1	7,7 m.	144,9	88,7
<b>Muborak</b>	183,2	97,0	5,4	147,2	177,8	96,0
<b>Nishon</b>	132,5	89,8	2,5	4,1 m.	130,0	88,5
<b>Kasbi</b>	145,3	92,3	3,2	3,9 m.	142,1	90,7
<b>Chiroqchi</b>	409,6	99,6	12,7	9,6 m.	396,9	96,8
<b>Shahrisabz</b>	339,0	92,9	18,5	46,3	320,5	98,7
<b>Yakkabog'</b>	438,2	97,1	10,3	178,5	427,9	96,0
<b>Qarshi sh.</b>	1329,5	99,5	283,6	3,0 m.	1045,9	84,2
<b>Shahrisabz sh.</b>	367,3	92,7	1,3	88,9	366,0	92,8

# CHAKANA SAVDO TOVAR AYLANMASI TARKIBI

## Yirik korxonalar

Eng yuqori ulushga  
ega hududlar, foizda





Chakana savdo tovar aylanmasi tarkibida yirik korxonalarning tovar aylanmasi hajmi, 2019-yilning yanvar-iyun oylariga nisbatan **135,1 %** ga o'sdi va **391,0** mlrd. so'mni tashkil qildi. Bu esa umumiy savdo hajmining **6,4 %** ulushiga to'g'ri keladi.



## Kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlari


Eng yuqori ulushga  
ega hududlar, foizda




Kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlariga chakana savdo tovar aylanmasi hajmi statistik hisob-kitoblarga ko'ra, **5 688,1** mlrd. so'mni tashkil etib, 2019-yilning yanvar-iyun oylariga nisbatan **6,6 %** ga kamaydi. Viloyat miqyosida ushbu sektorning jami chakana savdo tovar aylanmasidagi ulushi **93,6 %** ni tashkil etdi.



**CHAKANA SAVDO AYLANMASIDA YIRIK KORXONALAR, KICHIK  
BIZNES VA XUSUSIY TADBIRKORLIK SUBYEKTLARINING  
HUDUDLAR KESIMIDA ULUSHI (foizda)**



Tahliliy natijalarga ko'ra, chakana savdo tovar aylanmasida kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlarining ulushi bo'yicha Shahrisabz sh. (99,6 %), Koson (99,3 %), Qamashi (98,8 %), Dehqonobod (98,7 %), va Mirishkor (98,6 %) tumanlar yetakchilik qilmoqda. Chakana tovar aylanmasi tarkibida yirik korxonalarining ulushi 6,4 % ni tashkil etib, eng katta ulush Qarshi shahrida (21,3 %), Shahrisabz (5,4 %) va Kitob tumanlarida (3,7 %) kuzatilgan.



## VILOYAT BO'YICHA AHOLI JON BOSHIGA NISBATAN CHAKANA SAVDO TOVAR AYLANMASI HAJMI VA O'SISH SUR'ATLARI

2020-yil yanvar-iyun oylari holatiga ko'ra o'rtacha aholi jon boshiga chakana savdo tovar aylanmasi **1 847,3** ming so'm (2019-yil yanvar-iyun oylariga nisbatan **4,7 %** ga kamaydi), Kitob (**100,0**) tumanidan boshqa qolgan barcha hududlarda aholi jon boshiga chakana savdo tovar aylanmasi ko'rsatkichlarida kamayish sur'atlari kuzatildi.


Ushbu ko'rsatkichni hududlar kesimida solishtirilganda eng yuqorisi Qarshi shahri (**4 816,1** ming so'm), Shahrisabz sh. (**2 636,9** ming so'm) va Kitob (**2805,5** ming so'm) tumanlari hissasiga to'g'ri keladi.




	Hajm, ming so'm	2019-yil yanvar-iyun oylariga nisbatan, % da
<b>Qashqadaryo viloyati</b>	<b>1 847,3</b>	<b>95,3</b>
<i>hududlar:</i>		
G'uzor	1 565,5	98,6
Dehqonobod	1 349,9	88,8
Qamashi	1 433,6	96,1
Qarshi	1 894,3	95,3
Koson	1 641,8	93,2
Kitob	2 805,5	100,0
Mirishkor	1 229,2	88,2
Muborak	2 106,0	95,0
Nishon	865,7	87,6
Kasbi	738,7	90,3
Chiroqchi	992,7	97,0
Shahrisabz	1 527,8	91,6
Yakkabog'	1 664,4	95,4
Qarshi sh.	4 816,1	98,0
Shahrisabz sh.	2 636,9	91,5

Viloyat bo'yicha 2020-yilning yanvar-iyun oylarida uyushmagan savdo tovar aylanmasi **405,3** mlrd. so'mni tashkil etib, 2019-yil yanvar-iyun oylariga nisbatan **39,4** % ga kamaydi. Shu jumladan, 1- bozor va 1- bozor (chorva) (oylik) kuzatuvlari ma'lumotlariga asosan, dehqon bozorlarida savdo faoliyati bilan shug'ullanuvchi jismoniy shaxslarning uy xo'jaliklarida yetishtirgan mahsulotlarining sotish hajmi **254,4** mlrd. so'mni (o'zgarish sur'ati **81,1** %), chorva mollari va parrandalar sotuvchi jismoniy shaxslarning savdo aylanmasi hajmi **150,9** mlrd. so'mni (o'zgarish sur'ati **42,5** %) tashkil etdi.


**Asosiy tarkib, foizda**




**O'sish (o'zgarish) sur'atlari, foizda**



**Savdo aylanmasi hajmi va ulushi**



**Eng yuqori ulushga ega hududlar**



**UYUSHMAGAN SAVDO AYLANMASIDA DEHQON\* VA  
CHORVA (PARRANDA) BOZORLARINING SAVDO  
AYLANMASI HAJMI VA O'SISH SUR'ATLARI**

2020-yilning yanvar-iyun oylarida dehqon va chorva (parranda) bozorlarida, uy xo'jaligida yetishtirilgan qishloq xo'jaligi mahsulotlari, parrandalar va chorva mollari savdosi bilan shug'ullanuvchi jismoniy shaxslar tanlanma kuzatuv, dastlabki ma'lumotlarga ko'ra jismoniy shaxslar tomonidan amalga oshirilgan savdo aylanmasi hajmi dehqon bozorlarida **254,4** mlrd. so'mni, chorva (parranda) bozorlarida **150,9** mlrd. so'mni tashkil etdi.



\* Xo'jalik yurituvchi subyektlar va yakka tartibdagi tadbirkorlar (YTT)ni qo'shmagan holatda

\* Jismoniy shaxslar (dehqonlar)ning uy xo'jaligida o'z kuchlari bilan yetishtirgan qishloq xo'jaligi mahsulotlari, chorva (parranda) mollari

	Jami, mlrd. so'm	2019-yil yanvar-iyun oylariga nisbatan, foizda	Dehqon bozorlari, mlrd. so'm	2019-yil yanvar- iyun oylariga nisbatan, foizda	Chorva (parranda) bozorlari, mlrd. so'm	2019-yil yanvar- iyun oylariga nisbatan, foizda
<b>Qashqadaryo viloyati</b>	<b>405,3</b>	<b>60,6</b>	<b>254,4</b>	<b>81,1</b>	<b>150,9</b>	<b>42,5</b>
<i>hududlar:</i>		-				
<b>G'uzor</b>	18,9	48,4	9,2	52,0	9,6	55,1
<b>Dehqonobod</b>	16,7	57,4	11,1	64,6	5,5	25,3
<b>Qamashi</b>	30,1	61,8	19,0	97,1	11,1	42,7
<b>Qarshi</b>	15,3	29,9	10,1	55,6	5,2	20,6
<b>Koson</b>	49,1	54,2	30,0	75,6	19,1	36,3
<b>Kitob</b>	31,8	63,5	19,3	89,5	12,5	52,2
<b>Mirishkor</b>	22,8	2,7 m.	16,3	3,3 m.	6,6	80,4
<b>Muborak</b>	14,0	34,0	8,5	53,9	5,5	27,8
<b>Nishon</b>	15,0	80,2	8,8	112,3	6,1	44,4
<b>Kasbi</b>	18,0	113,4	12,3	2,2 m.	5,8	34,1
<b>Chiroqchi</b>	53,2	36,7	25,4	39,2	27,8	32,9
<b>Shahrisabz</b>	17,2	66,1	10,0	70,1	7,2	261,3
<b>Yakkabog'</b>	19,8	59,1	11,2	71,9	8,8	50,2
<b>Qarshi sh.</b>	63,7	116,6	43,6	159,0	20,1	81,1
<b>Shahrisabz sh.</b>	19,7	113,7	19,7	83,2	0,0	0,0

## UYUSHMAGAN SAVDO TOVAR AYLANMASI: DEHQON BOZORLARI



3,8  
mlrd. so'm

**Tuzlamalar**



77,3  
mlrd. so'm

**Yangi uzilgan qishloq  
xo'jaligi mahsulotlari**



10,9  
mlrd. so'm

**Qurtilgan qishloq  
xo'jaligi mahsulotlari**  
(yong'oq, bodom, pista va  
boshqalarni qo'shgan holda)

37,9  
mlrd. so'm



**Non va non  
mahsulotlari**



12,4  
mlrd. so'm

**Sut va sut  
mahsulotlari**

9,9  
mlrd. so'm



**Tuxum**

38,4  
mlrd. so'm



**Don mahsulotlari** (mosh,  
loviya, no'xat, guruch va  
boshqalar)

4,4  
mlrd. so'm



**Chorva mollari va  
parrandalar uchun har xil  
yem-hashaklar**

2020-yilning yanvar-iyun oylarida viloyatning barcha hududlarida joylashgan dehqon bozorlarida qishloq xo'jaligi mahsulotlarini sotuvchi jismoniy shaxslarning tanlanma kuzatuvini o'tkazildi. Kuzatuv natijalariga ko'ra savdo aylanmasi hajmi **254,4** mlrd. so'mni tashkil etdi. Bunda asosiy yirik hajm yangi uzilgan qishloq xo'jaligi mahsulotlari savdosiga (**77,3** mlrd. so'm) to'g'ri keldi.

9,2  
mlrd. so'm



**Ziravorlar**

47,9  
mlrd. so'm



**Tovuq go'shti**

2,3  
mlrd. so'm



**Gullar, o'simlik va nihol  
ko'chatlari** (manzarali va  
qishloq xo'jaligi)

## UYUSHMAGAN SAVDO TOVAR AYLANMASI: CHORVA (PARRANDA) BOZORLARI


2020-yilning yanvar-iyun oylarida viloyatning barcha hududlarida joylashgan chorva (parranda) bozorlarida parrandalar va chorva mollari sotuvchi jismoniy shaxslar tanlanma kuzatuvini o'tkazildi. Kuzatuv natijalariga ko'ra savdo aylanmasi hajmi **150,9** mlrd. so'mni tashkil etdi. Bunda har xil yoshdagi qora mollar savdosi **105,1** mlrd. so'mni, qo'y va echkilar **37,3** mlrd. so'mni, otlar **7,5** mlrd. so'mni, parrandalar **1,0** mlrd. so'mni tashkil etdi. Savdo aylanmasining to'liq tarkibi quyidagi ko'rsatkichda o'z aksini topgan:



**UMUMIY OVQATLANISH KORXONALARI SAVDO AYLANMASIDA YIRIK  
KORXONALAR, KICHIK BIZNES VA XUSUSIY TADBIRKORLIK  
SUBYEKTLARINING HAJMI VA O'SISH SUR'ATLARI**

2020-yilning yanvar-iyun oylarida chakana savdo tovar aylanmasi tarkibida ovqatlanish tashkilotlarining savdo aylanmasi **1,9 %** ni tashkil etib, **117,0** mlrd. so'mga yetdi va 2019-yil yanvar-iyun oylariga nisbatan **6,5 %** ga kamaydi. Bunda jami savdo aylanmasining **93,7 %** ulushi kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlari hissasiga to'g'ri kelmoqda.

**Umumiy ovqatlanish korxonalarini savdo aylanmasining ulushi, foizda**



	Jami, mln. so'm	Ulushi, % da	Yirik korxonalar, mln. so'm	Ulushi, % da	Kichik biznes va xususiy tadbirkorlik, mln. so'm	Ulushi, % da
<b>Qashqadaryo viloyati</b>	<b>117 043,3</b>	<b>100</b>	<b>7376,3</b>	<b>6,3</b>	<b>109 667,0</b>	<b>93,7</b>
<i>hududlar:</i>						
<b>G'uzor</b>	4 497,4	3,8	655,6	14,6	3 841,8	85,4
<b>Dehqonobod</b>	2 362,4	2,0	-	-	2 362,4	100,0
<b>Qamashi</b>	7 917,1	6,8	-	-	7 917,1	100,0
<b>Qarshi</b>	9 148,1	7,8	-	-	9 148,1	100,0
<b>Koson</b>	3 395,4	2,9	-	-	3 395,4	100,0
<b>Kitob</b>	11 908,3	10,2	-	-	11 908,3	100,0
<b>Mirishkor</b>	2 475,5	2,1	-	-	2 475,5	100,0
<b>Muborak</b>	5 834,5	5,0	3805	65,2	2 029,5	34,8
<b>Nishon</b>	3 808,8	3,3	-	-	3 808,8	100,0
<b>Kasbi</b>	2 383,5	2,0	-	-	2 383,5	100,0
<b>Chiroqchi</b>	6 640,6	5,7	-	-	6 640,6	100,0
<b>Shahrisabz</b>	6 056,6	5,1	-	-	6 056,6	100,0
<b>Yakkabog'</b>	5 398,2	4,6	-	-	5 398,2	100,0
<b>Qarshi sh.</b>	37 546,6	32,1	2915,7	7,8	34 630,9	92,2
<b>Shahrisabz sh.</b>	7 670,2	6,6	-	-	7 670,2	100,0

## ULGURJI SAVDO TOVAR AYLANMASI

### Asosiy tarkib, foizda




Yirik korxonalar



Mikrofirma va kichik korxonalar

Viloyat bo'yicha 2020-yilning yanvar-iyun oylarida ulgurji savdo tovar aylanmasi **1 207,9** mlrd. so'mni tashkil etib, 2019-yil yanvar-iyun oylariga nisbatan **28,2** % ga kamaydi. Shu jumladan, yirik korxonalarining savdo tovar aylanmasi **283,3** mlrd. so'mni (**57,9** % ga kamayish), kichik biznes subyektlarining savdo tovar aylanmasi **924,6** mlrd. so'mni (**8,3** % ga kamayish) tashkil etdi.

### O'sish (o'zgarish) sur'atlari, foizda




Yirik korxonalar

Kichik biznes subyektlari

### Savdo aylanmasi hajmi va ulushi



### Eng yuqori ulushga ega hududlar




**ULGURJI SAVDO AYLANMASIDA YIRIK KORXONALAR  
VA KICHIK BIZNES SUBYEKTLARINING HAJMI VA  
O'SISH SUR'ATLARI**

Ulgurji savdo tovar aylanmasida yuqori o'sish sur'atlariga ega yirik korxonalar Koson (**401,7 m.**) va Kitob (**81,3 m.**), Shahrisabz tumanlarida (**7,1 m.**) kuzatildi.


Ulgurji tovar aylanmasida nisbatan yuqori o'zgarish sur'atlari Shahrisabz (103,4 %), Koson (**101,5 %**) va G'uzor (**100,5 %**) tumanlarida qayd etildi.

Ulgurji savdo aylanmasi o'sish sur'atlari, foizda



	Jami, mlrd. so'm	2019-yil yanvar-iyun oylariga nisbatan, foizda	Yirik korxonalar, mlrd. so'm	2019-yil yanvar- iyun oylariga nisbatan, foizda	Mikrofirma va kichik korxonalar, mlrd. so'm	2019-yil yanvar- iyun oylariga nisbatan, foizda
<b>Qashqadaryo viloyati</b>	<b>1 207,9</b>	<b>71,8</b>	<b>283,3</b>	<b>42,1</b>	<b>924,6</b>	<b>91,7</b>
<i>hududlar:</i>						
G'uzor	44,3	100,5	9,2	4,6 m.	35,1	79,9
Dehqonobod	13,1	78,4	-	-	13,1	78,4
Qamashi	43,5	92,5	21,9	112,3	21,6	78,5
Qarshi	57,5	82,6	13,4	65,5	44,1	89,7
Koson	56,9	101,5	26,6	401,7 m.	30,3	54,0
Kitob	44,6	96,4	4,8	81,3 m.	39,8	86,0
Mirishkor	40,1	74,1	27,2	74,8	12,9	72,8
Muborak	30,0	54,9	10,7	31,7	19,3	92,6
Nishon	25,0	46,3	8,1	22,4	16,9	93,7
Kasbi	32,7	61,1	19,9	52,4	12,8	82,4
Chiroqchi	65,0	94,9	-	-	65,0	94,9
Shahrisabz	35,3	103,4	10,4	7,1 m.	25,0	73,6
Yakkabog'	34,4	98,8	4,2	2,6 m.	30,2	87,2
Qarshi sh.	627,9	63,8	126,9	26,0	501	101,0
Shahrisabz sh.	57,4	89,4	-	-	57,4	90,5

## YIRIK KORXONALAR VA KICHIK BIZNES SUBYEKTLARINING ULGURJI SAVDO TOVAR AYLANMASIDAGI ULUSHI, foizda



Ulgurji savdo tovar aylanmasida eng yuqori hajm kichik biznes subyektlariga to'g'ri kelib, mazkur hajm 2020-yil yanvar-iyun oylari yakuniga ko'ra, **924,6** mlrd. so'mni tashkil etib, 2019-yil yanvar-iyun oylariga nisbatan **8,3** % ga kamaygan. Jami ulgurji savdo tovar aylanamasidagi ulushi esa **76,5** % ni tashkil etdi.

